

**YAPON INKOR MORFEMALARINING TARIXIY VA ZAMONAVIY
KO'RINISHLARI TAHLILI**

Boymurodova Dilafruz Dilshod qizi

Samarqand Davlat Chet tillar instituti Sharq tillar fakulteti

Yapon filologiyasi kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolamizda yapon tilidagi inkor morfemalarning tarixiy rivojlanishi va zamonaviy qo'llanilishini tahlil qilinadi. Tadqiqot fe'l oldida keladigan inkor qo'shimchalarining turli bosqichlarda shakllanishi va ularning semantik ma'nosini o'rganadi. Muallif inkor morfemalarning so'zlarga qo'shilish tartibini va ularning til va madaniyat kontekstidagi o'zgarishini ko'rsatadi. Maqola yakunida inkor shakllarining jamiyat va til bilan parallel ravishda rivojlanishi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Yapon tili, inkor morfemalar, lingvokulturologiya.

Kirish

Jamiyada til sohalari va unga yordamchi fanlar rolini o'sib borishi natijasida bu fanlarni oldida turgan muammolar ko'lami tobora yaqqol namoyon bo'lib bormoqda. Ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar fanlar, birinchi navbatda tilshunoslik zimmasiga yanada ma'suliyatli vazifalarni yukladi. Zero, o'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 16-aprel sanasidagi qabul qilingan "Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-4680-son qarorida ham Sharq mamlakatlarining tillari va adabiyoti, tarixi, madaniyatini o'rganish belgilab qo'yildi.

Bugungi kunda yurtimizdagi oliy ta'lim muassasalarida nafaqat o'rta ta'lim va boshlang'ch talim ham yapon tili har tomonlama chuqur o'rgatilib borilmoqda. Xususan yapon tilining o'ziga xos bo'lgan yozuvlari xiragana, katakana (kanji), yapon tili grammatikasi, tinglab tushinish, so'zlashish va og'zaki nutq jarayonini shakllantirishga doir bo'lgan yapon tilining o'ziga xos xususiyatlari yuqori pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda o'quvchilarga o'rgatilinmoqda. Ayniqsa, til vakillari va til o'rganuvchilar bilan muloqot jarayonida ravon gapirish va so'zlarni o'z o'rnida foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Yapon tili shakllanishi va hozirgi kunda uni o'rgatish usullarini alohida tadqiq etish fan oldidagi dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Bugungi kunda yurtimizda ilmiy faolyat olib borayotgan ko'plab yaponshunoslarimiz tomonidan ushbu tilga doir ko'plab ilmiy tadqiqotlar keng o'rganilib borilmoqda. Xususan yapon tili metodikasi, yapon tili grammatikasi, yapon tilidagi muloqot jarayonidagi inkor shakllar keng o'rganilib borilmoqda.



O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

Shunday bo'lsada yapon tili muloqot jarayonida ko'p urg'u qaratilgan inkor shakllarini o'ziga xosdir. Yapon xalqi bevosita inkor shakllarni emas, balki bevosta inkorlarni ma'qul ko'rishadi. Inkor shakllarning morfologik ifodasi, asosan, kesim tarkibidagi maxsus inkor ko'rsatkichlari orqali amalga oshadi. Zamonaviy yapon tilida zuni va zaru shakllari asosan qo'llaniladi bu qo'shimchalar zamon kategoriyasi mavjud emas va asosan fe'llarga bog'lanib qo'llaniladi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda yapon tilidagi inkor morfemalarining tarixiy va zamonaviy ko'rinishlarini o'rganishda bir necha lingvistik tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy asosini yapon tilshunosligi, tarixiy grammatika hamda morfologiya sohasiga oid ilmiy manbalar tashkil etdi. Tadqiqot jarayonida, avvalo, tarixiy-qiyosiy metod asosida qadimgi va zamonaviy yapon tilidagi inkor shakllari o'zaro qiyoslandi. Ushbu metod yordamida 「ず」, 「ぬ」, 「ざる」 kabi qadimgi inkor morfemalarining

zamonaviy 「ない」, 「ません」 va 「ん」 shakllariga o'tish bosqichlari tahlil qilindi. Shuningdek, inkor shakllarining fonetik va grammatik o'zgarishlari ham diaxron aspektda o'rganildi. Bundan tashqari, struktur-semantik tahlil metodidan foydalanilib, inkor morfemalarining gap tarkibidagi vazifasi, semantik xususiyatlari hamda fe'l bilan birikish modellari tadqiq etildi. Ushbu metod orqali inkor shakllarining yozma va og'zaki nutqdagi funksional farqlari aniqlashtirildi. ずに va ざる suffikslari asosan yozma uslubda qo'llanilib ogzaki uslubda faqatgina turg'un grammatik birliklarda maqollarda frazialogik iboralarda ishlatiladi. Masalan:

わらうかおにやたたず kulib turga yuzga o'q uchmaydi.

ずに va ざる inkor suffikslari hozirgi zamonaviy yapon tilida quyidagi shakllarda ifodalanadi:

いう

Aytmoq いわず（に）

aytmaslik いわざる

aytmaslik

きく

Eshitmoq かかず（に）



O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

eshitmasdan かかざる

eshitmaslik

はなす

Gapirmoq はなさず（に）

gapirmasdan はなさざる

gapirmaslik

まつ kutmoq またず（に kutmasdan） またざる kutmagan

とぶ Uchmoq とばず（に） uchmasdan とばなざる uchmaslik

よみ O'qimoq よまず（に） O'qimasdan よまざる O'qimasdan

わかる tushinmoq わからず（に）

tushinmasdan わからざる tushinmaslik

くる Kelmoq こず（に） kelmasdan こざる kelmaslik

O'rta boglovchi shaklda zu qo'llanilish jixatdan nakute formasi bilan bir xil bo'ladi. Masalan: 何もみえず、つまらないえんそくだった nanimo miezu tsumaranai ensokudatta xech narsa kurinmaydigan zerikarli sayohat. Ushbu shakl bundan tashqari gazeta va jurnallrning kirish jumlarida ham qo'llaniladi. Yozma uslubdagi sushte shakl する felidan kelib chiqqan bo'lib aniqlovchi ma'nosini beradi va ず に ない で formalariga ekvivalent hisoblanadi. Masalan: てけおしらずしてたたかない dushmanni bilmay turib urushish mushkil.

ず と も inkor shakli esa yozma uslubda qo'llanilib taslim ma'nosini ifodalaydi va なくとも inkor shakliga sinonim hisoblanadi. Masalan: 私たちは話さずともおたがいにりかいできる (vatashiva hanasazuni otagaini wakarimasu) biz gaplashmasak ham bir birimizni tushinamiz.

Natijalar



O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

O'rta hol formasi **ないで** (naide) shakliga ekvivalent bo'lib qilmasdan, qilmay turib ma'nolarida qo'llaniladi. Masalan: **なにもいわずにでていった** (nanimo ivazuni deteita) xech narsa demasdan chiqib ketti **ずにいる** (zuni iru) shakli **ないでいる** (naide iru) shaklining adabiy shakli bo'lib harakatning amalga oshmasligini ifodalaydi.

Aniqlovchi shakl **ざる** (zaru) shakli qadimgi bungo yozuvidan kelib chiqqan bo'lib asosan adabiy uslubda qo'llaniladi. Zamonaviy yapon tilida zaru formasi sifatdash sifatida qo'llanilib sifatdashga aylangan kitoblar film va reklama nomlarini ifodalashda qo'llaniladi.

"Taqiqlangan" hali ham "amalga oshmagan" ish xarakatlarni ifodalash, oldindan taqiqlab qo'yilganligi, yana biri avvalroq sodir bo'lgan ishni yana qaytarilimasligi uchun "cheklash"ni ham ifodalaydi. Ushbu teoreyaga asoslanib -na + fe'l + so formulasi orqali gap tuzilish strukturasini ochib berishimiz mumkin bo'lib bunda yetkazmoqchi bo'lgan ma'no doiramiz nisbatdan kengroq hisoblanadi. Na qo'shimchasi so'zning istalgan joyida kela oladi degan qarashlar keyinchalik o'zgara boshlangan va **な** ning so'z boshida ishlatilishi kamayib borgan.

な 散り 乱ひそ (na chiri midarahiso)

散り な 乱ひそ (chiri midarahiso)

So'zlar bir biriga bog'lanish nuqtai nazaridan inkor shakl zamon o'tishi bilan fe'llarda qo'llanila boshlaydi. Yuqoridagi misolda -na shaklning qo'llanilishi uning tarkibiy o'xshashligini oshiradi. Qisqa qilib aytadigan bo'lsak -na + fe'l + so shakl qadimgi qo'llanilish shakli hisoblanib, hozirgi vaqtda fe'l so'zidan ildin -ni qo'llaniladi, so'z boshidagi -na tushib qoladi va so'z oxiridagi -so ning o'rnida ishlatilib quydagi - fe'l +na shaklda ishlatila boshlaydi. Kech muramachi davridan boshlab Edo davrigacha bo'lgan davrda shu shakllarni o'zgarib borishi va qo'llanilishini kuzatishimiz mumkin. Zamonaviy yapon tilida salbiy imperativlarini ko'rinishi fe'l + na holatida qo'llaniladi.

Yigirmanchi asrning boshlarida - na + fe'l +so shaklining pasayishi faqat yapon tilida hona emas balki butun dunyo tillarining o'z yo'nalishida o'zgarish jarayonini umumiy holatda ko'rib chiqishimiz mumkin. Men bu tillari tendensiya o'zgarishlar mos kelishini qaytadan ishonch hosil qilish uchun ko'rib chiqamiz. O'tish jarayonini aniq qilib tushuntirish uchun men uni olti



O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

bosqichga bo'laman. Ingliz tilida ham no inkori fe'ldan oldin qo'llanilgan bo'lib bu prefiksi do ning rivojlanishigacha bo'lgan davrda qo'llanilgan. Keyinchalik no ning o'rnini do egallaydi. Fransuz tilining inkor shaklini rivojlanish bosqichi hozirgi kunda to'rtinchi bosqichda rivojlanmoqda. Yapon tilida ushbu olti bosqich qanday rivojlanganligini ko'rib chiqamiz. Biz bu bosqichlardan har bir bosqich uchun ularning so'zlar tarkibida murojaat qilamiz va uni soudana tushintirib berishga xarakat qilamiz.

Muhokama

第 1 段階 「な + 動詞」 dai 1dankai na + doushi birinchi qadamda biz na shakl fe'ldan oldin keladi va inkor so'zning boshida qo'llaniladi

第 2 段階 「な + 動詞 + そ」 dai 2 dankai na + doushi + so ikkinchi shaklda esa fe'ldan so'ng ma'noni takidlovchi vazifasini bajaruvchi so ham qo'shiladi.


第 3 段階 「な + 動詞 + そ (= 否定副詞)」 dai 3 dankai na + doushi + so uchinchi shaklda ham xuddi shunday shakl bu yerda ikkinchi qoida kabi ta'kidlangan shakl emas, balki inkor shaklni ifoda etadi. Hawkins aytganidek bu ikki shaklda ham shakl bir xil ammo kamroq shakl ko'proq semantik funksiyasini oshirish uchun xizmat qiladi.

第 4 段階 「(な +) 動詞 + そ」 dai 4 dankai (na+) doushi+so to'rtinchi bosqichda fe'l oldida keladigan inkor qo'shimchasi ishlatilishi namoyon bo'lib inkor ma'nosini so'z oxiridagi so ifodalaydi.

第 5 段階 「動詞 + そ (な)」 doushi + so (na) beshinchi shaklda yani rivojlanish davriga kelib inkor so orqali ifodalanib ayrim vaqtlarda na ifodasi bilan ham qo'llaniladi. Bunda inkor fe'ldan keyin ha o'tganini ko'rishimiz mumkin.

第 6 段階 「動詞 + な」 dai 6dankai doushi + na bu shakl hozirgi zamonaviy yapon tilida keng ko'lamda qo'llanilayotgan til hisoblanadi. Bunda sizning oxirgi qismi asosiy ma'noni beradigan qismi sanalib barcha e'tibor shu qisimga qaratiladi. Bu bosqichlar yordamida qadimdan hozirgi kungacha bo'lgan inkor formasini so'zlarga qay holda qo'shilganligi va ular ifodalagan ma'no-mazmunini ko'rib chiqishga xarakat qildik. Bu yapon tilida inkor shaklning rivojlanishi, qisqa qilib qytadigan bo'lsak na inkor shaklnin so'zlarga qo'shilishning zamonlar osha rivojlanib kelish bosqichi desak ham bo'ladi. Fikrimiz oxirida shuni ta'kidlab o'tmoqchimanki har bir tilda va jamiyatda inkor jamiyat bilan birga hamnafas rivojlanib keladi.

Xulosa



O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

Ushbu tadqiqotda yapon tilidagi inkor morfemalarining tarixiy shakllanishi, grammatik rivojlanishi hamda zamonaviy yapon tilidagi funksional xususiyatlari lingvistik jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot davomida qadimgi yapon tilida faol qo'llangan 「ず」, 「ぬ」, 「ざる」, 「まじ」 kabi inkor shakllarining kelib chiqishi, semantik vazifalari va zamonaviy yapon tilidagi inkor vositalari bilan o'zaro bog'liqligi o'rganildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, yapon tilidagi inkor kategoriyasi til taraqqiyoti jarayonida murakkab grammatiklashuv bosqichlarini bosib o'tgan. Tahlillar asosida qadimgi yapon tilidagi inkor shakllari dastlab mustaqil leksik birlik yoki yordamchi element sifatida qo'llangan bo'lsa, keyinchalik ular grammatik morfemalarga aylanganligi aniqlandi. Ayniqsa, 「ない」 shaklining tarixiy taraqqiyoti yapon tilidagi inkor tizimining markaziy elementi sifatida shakllanganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, 「ずに」, 「ざる」 va 「ずとも」 shakllarining bugungi kunda asosan yozma va badiiy uslubda saqlanib qolganligi, og'zaki nutqda esa 「ない」 va 「ません」 shakllarining ustunlik qilishi kuzatildi. Maqolada inkor shakllarining fe'l bilan birikish jarayoni ham tarixiy aspektda ko'rib chiqildi. Xususan, qadimgi davrlarda inkor ko'rsatkichlarining fe'l oldida qo'llanishi keyinchalik fe'ldan keyingi pozitsiyaga o'tganligi va zamonaviy yapon tilida fe'l + 「ない」 yoki fe'l + 「な」 shakllarida barqarorlashgani tahlil qilindi. Bu holat yapon tilida sintaktik va morfologik tizimning tarixiy rivojlanishini aks ettiradi. Shuningdek, yapon tilidagi inkor shakllarining pragmatik xususiyatlari ham muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Yapon kommunikativ madaniyatida bevosita inkordan ko'ra bilvosita va yumshoq inkor shakllarining ko'proq qo'llanishi til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ko'rsatadi. Bu esa inkor kategoriyasini faqat grammatik hodisa sifatida emas, balki ijtimoiy-madaniy fenomen sifatida ham tadqiq qilish zarurligini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari yapon tilidagi inkor morfemalarining tarixiy evolyutsiyasi va zamonaviy qo'llanilishidagi o'ziga xos jihatlarni yoritishga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot kelgusida yapon tilining tarixiy grammatikasi, pragmatikasi hamda qiyosiy tilshunoslik yo'nalishidagi ilmiy izlanishlar uchun muhim nazariy manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI



1. 森 英樹. 日本語否定命令文の歴史的変遷 福井県立大学論集 第40号 2013. 2 4p
2. Roy Andrew Miller. The Japanese Language. - - Tokyo: Charles E. Tuttle company, 2009.- 125p
3. Boymurodova Dilafruz Dilshod qizi. (2026). YAPON MULOQOT JARAYONIDA INKOR LEKSEMALARNING LINGVOKULTURALOGIK TAHLILI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.18397948>
4. SEMANTIC NEGATION IN SPEECH MANIFESTATION <https://asiansciencejournal.org/index.php/AJSRI/article/view/308>
5. D.D., B. (2026). YAPON TILIDA INKOR INKOR VOSITALARNING PRAGMALINGVISTIK XUSUSIYATLARI. Advances in Science and Humanities, 2(07), 63-65. <https://doi.org/10.70728/human.v02.i07.016>
6. O.F. Achilova. A contrastive study of english and japanese grammar: structural, morphosyntactic and pragmatic perspectives. Vol. 13 No. 11 (2025): FARS International Journal of Education, Social Science & Humanities. -117-120 p.
7. D.D, B. (2026). INKOR SHAKLLARNING LINGVOSTILISTIK TAHLILI. Advances in Science and Humanities, 2(07), 55-58. <https://doi.org/10.70728/human.v02.i07.014>